

STENDALNING "QIZIL VA QORA" ROMANI FRAZEOLOGIZMLARI: TARJIMA VA LINGVOMADANIY TAHLIL

Yo'ldoshev Javohirjon Anvar o'g'li

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Lingvistika(fransuz tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

javohirjonyoldoshev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14740408>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Stendalning "Qizil va Qora" romanidagi frazeologik birliklar va ularning o'zbek tiliga tarjimasi lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o'rganilgan. Roman matnidan bir qator frazeologik birikmalar tanlanib, ularning fransuzcha shakllari va o'zbekcha tarjimadagi ekvivalentlari tahlil qilindi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda ishlatilgan usullar, jumladan, so'zma-so'z tarjima, ekvivalent yaratish va moslashtirish usullari ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqot frazeologizmlarni tarjima qilishda madaniy moslashuvning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, tarjima, Stendal, lingvomadaniy tahlil, fransuz tili, o'zbek tili, Qizil va qora.

PHRASEOLOGISMS FROM STENDAL'S NOVEL "RED AND BLACK": TRANSLATION AND LINGUISTOCULARY ANALYSIS

Abstract. This article studies phraseological units from Stendal's novel "Red and Black" and their translation into Uzbek from a linguistic and cultural perspective. A number of phraseological units were selected from the text of the novel, and their French forms and equivalents in the Uzbek translation were analyzed. The methods used in translating phraseologisms, including word-for-word translation, methods of creating equivalents and adaptation, were considered. This study shows the importance of cultural adaptation in translating phraseologisms.

Keywords: phraseologisms, translation, Stendal, linguistic and cultural analysis, French language, Uzbek language, Red and Black.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ ИЗ РОМАНА СТЕНДАЛЯ «КРАСНОЕ И ЧЁРНОЕ»: ПЕРЕВОД И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье изучаются фразеологические единицы в романе Стендаля «Красное и черное» и их перевод на узбекский язык с лингвокультурологической точки зрения. Из текста романа был отобран ряд фразеологических единиц,

проанализированы их французские формы и эквиваленты в узбекском переводе. Были рассмотрены методы, используемые при переводе фразеологизмов, включая дословный перевод, создание эквивалентов и адаптацию. Данное исследование демонстрирует важность культурной адаптации при переводе фразеологизмов.

Ключевые слова: *фразеологизмы, перевод, Стендаль, лингвокультурологический анализ, французский язык, узбекский язык, Красное и черное.*

KIRISH

Frazeologik birliklar har qanday tilning boyligi va madaniy merosini ifodalovchi muhim unsurlar hisoblanadi. Stendal "Qizil va Qora" romanida XIX asr Fransiya jamiyatining realistlik tasvirini yaratish jarayonida ko'plab frazeologizmlardan foydalanadi. Ular orqali asar o'zining ijtimoiy va madaniy mohiyatini yanada chuqurroq aks ettiradi.

Tarjima jarayonida frazeologik birliklarni o'zbek tilida ekvivalent tarzda berish tilning lingvistik va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish uchun muhim. Ushbu maqola fransuzcha frazeologik birliklarning o'zbekcha tarjimada qanday ifoda etilganini, ular orasidagi madaniy va semantik tafovutlarni o'rganishga hamda frazeologizmlarning badiiy adabiyotdagi o'rni va vazifasini "Qizil va Qora" romani misolida ko'rsatib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili: Ushbu maqolani yarayish jarayonida Stendalning "Qizil va Qora" romanining fransuzcha asl nusxasi¹ va o'zbekcha tarjimalaridan² foydalanildi. Roman matnida madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni aks ettiruvchi ko'plab frazeologizmlarni topish mumkin. Vinay va Darbelnetning tarjima usullari frazeologizmlarning lingvistik moslik va madaniy kontekstga moslashuvini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodlar: Stendalning "Qizil va Qora" romanida uchraydigan frazeologik birliklarni tarjima va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish uchun avvalo ushbu asardan va uning tarjimasidan bir qator frazeologizmlar tanlab olinib, ularning tarjimalari o'zaro qiyoslandi va ushbu frazeologizmlar tarjima uskli bo'yicha tasniflandi. Bunda ularning so'zma-so'z tarjima qilish, madaniy ekvivalent yaratish yoki kontekstual moslashtirish yo'li bilan o'zbekchalashtirilishiga e'tibor qaratildi va yakunda har bir frazeologik birlikning semantik, madaniy hamda lingvistik xususiyatlari o'rganib chiqildi.

¹ Stendhal. Le Rouge et le Noir : Première parution en 1830 / <https://www.texteslibres.fr/le-rouge-et-le-noir.html>

² Stendal. Qizil va Qora: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent (1986).

NATIJALAR

Frazeologizmlar soʻz birikmalari shaklida boʻlib, ular birgalikda aniq va koʻpincha metaforik maʼno ifodalaydi. *Masalan* ; "burunni tiqmoq" iborasi aniq tasvirni ifodalash bilan birga, qoʻshimcha kontekstual maʼnoga ega boʻladi.

Frazeologik birliklar tilda madaniy va ijtimoiy tajribani aks ettirib, nutqni boyitadi. Biroq, ularni boshqa tillarga toʻgʻri tarjima qilish jarayonida tarjimonlar baʼzan bir qator qiyinchiliklarga duch kerlishadi. Chunki bu iboralarning maʼno va madaniy oʻziga xosliklarni saqlab qolish xususiyati bilan bogʻliq. Stendalning "Qizil va Qora" romani XIX asr Fransiya jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini oʻzida aks ettiradi. Asarda ishlatilgan frazeologik birliklar nafaqat asardagi personajlarning hissiy holatini, balki muhit va zamon ruhiyatini ham tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlar yordamida Stendal oʻz qahramonlarining ichki dunyosini chuqurroq ochib beradi hamda ularning gʻazabi, ishonchsizligi, sevgi va nafrat kabi hissiyotlarini ifoda etadi.

Frazeologik birliklar matnga obrazlilik va ifodaviylik baxsh etadi. **Masalan** : *Si jamais je me laissais entraîner à avoir du goût pour cette grande poupée blonde*. Ushbu gapda "**se laisser entraîner à**" va "**avoir du goût pour**" kabi frazeologik birliklarni uchratishimiz mumkin. Bunda birinchi ibora "*biror narsaga oʻzi chuqur berilib ketish*" degan maʼnoda ishlatiladi. Bu frazeologizm boʻlib, tasviriy va koʻchma maʼno ifodalaydi. "**Avoir du goût pour**" ham koʻchma maʼnoda ishlatiladigan ibora boʻlib, "*biror narsaga moyillik yoki qiziqishga ega boʻlish*" degan maʼnoni anglatadi. Ushbu frazeologizm ham fransuz jamiyatida keng qoʻllaniladi hamda bu kabi frazeologik birliklar biror bir yirik tushuncha yoki voqea-hodisani qisqaroq, londaroq va aniq ifodalashga xizmat qilish bilan bir qatorda aniq mazmun, tasviriy va koʻchma maʼno, obrazlilikni oʻzida namoyon qiladi.

Quyida jadvalda shu kabi Stendalning "Qizil va Qora" romanida uchraydigan bir qator frazeologik birliklarni atroflicha tahlil qilishga harakat qilib koʻramiz.

Toʻliq jumla	Bet	Frazeolo gizmlar	Oʻzbekcha tarjima	Izoh
Une autre discussion l'attendait dans la soirée. Pour ne pas prolonger une scène désagréable et dont à ses yeux le résultat était certain, Julien était	417	prendre la parole	soʻz olish	U "gapirish" yoki "soʻzlash" maʼnosini bildiradi va bu jumlada soʻzma soʻz tarjimadan foydalaniladi.

résolu à ne pas prendre la parole				
Le soir, une petite femme de chambre de mademoiselle de La Mole, qui faisait la cour à Julien, comme jadis Élisabeth, lui donna cette idée, que le deuil de sa maîtresse n'était point pris pour attirer les regards.	260	faire la cour attirer les regards	G'amza qilmoq Odamlarni o'ziga qaratish 344 b.	Ushbu gapdagi iboralar « kimningdir e'tiborini tortish uchun unga xushomad qilish » va « o'zgalar e'tiborini tortish » ma'nolarini ifodalaydi. Bunda birinchi holat ekvivalent berish, ikkinchisi esa kontekstual moslashtirish yo'li bilan bilan tarjima qilingan.
Si jamais je me laissais entraîner à avoir du goût pour cette grande poupée blonde	285	1. se laisser entraîner à ; 2. avoir du goût pour	Jiddiy ko'ngil qo'yish	Ushbu gap tarjimasida ikkala frazeologik birlik birgina jiddiy ko'ngil qo'yish iborasi bilan ifodalanib ekvivalent berish usuli qo'llanilgan.
Ne serait-ce pas, se dit-il, une façon de se moquer de cet être, si comblé de tous les avantages de la fortune, que de prendre possession de la main de sa femme, précisément en sa présence.	56	1. se moquer de 2. prendre possession de	Ustidan bir kulmoq Qo'lidan ushlamoq 78 b	Bu iboralar "ustidan kulmoq", "masxara qilmoq" va "o'z tasarrufiga olish" degan ko'chma ma'nolarda ishlatilib, birinchi holatda ekvivalent berish; ikkinchi holatda esa madaniyatga moslashtirib o'zbekchalashtirish usullari qo'llanilgan.
Cette femme la plus distinguée du pays, que pendant six ans il avait environnée de tant de soins, et malheureusement au vu et au su de tout le monde.	101	au vu et au su de tout le monde	Barchaning ko'z o'ngida 137 b	Bu ibora "hammaga oshkora", "hamma bilgan holda" degan ko'chma ma'noni anglatadi. Bu ifoda fransuz tilida keng qo'llanadi va mustahkam ifodadir. O'zbekcha ekvivalent berish usuli.
De ce moment, il n'y eut plus d'envie ; on lui fit la cour bassement : l'abbé Castanède, qui, la veille encore, était de la dernière insolence	178	faire la cour	Xushomad qila boshlamoq 240 b.	Ushbu gapdagi ibora « kimningdir e'tiborini tortish uchun unga xushomad qilish » ma'nosini ifodalaydi. G'amza qilmoq tarjimasidan farqli ravishda bu o'rinda

envers lui, vint le prendre par le bras et l'invita à déjeuner.				takrorlarga yo'l qoymaslik uchun boshqa ekvivalent qollanilgan
Du diable si je vois un d'entre eux qui puisse apprendre par cœur quatre pages et faire cent lieues sans être dépisté. Norbert saurait se faire tuer comme ses aïeux, c'est aussi le mérite d'un conscrit...	321	1. Du diable si 2. apprendre par cœur 3. se faire tuer comme ses aïeux	Imkonsiz Yod olish Ajdodlari kabi sha'niga dog' tushirmay halok bo'lish 423 b.	Bu gapdagi iboralar « hech qanday imkoniyat yo'q » yoki « imkonsiz » ; « yod olmoq » va « o'z joniga qasd qilish » kabi obrazli ma'nolarda ishlatiladi. Tarjimada barcha frazeologizmlar so'zma so'z tarjima qilinadi.
Madame de Rênal était une de ces femmes de province, que l'on peut très bien prendre pour des sottos pendant les quinze premiers jours qu'on les voit.	31	prendre pour des sottos	Bir qarashda ovsardek tuyuladigan 48 b.	Bu frazeologik ibora "ahmoq deb o'ylamoq" yoki "ahmoq deb tasavvur qilish" degan ma'noni bildiradi va fransuz jamiyatida keng qo'llaniladi. Tarjimada esa ma'no tarjima qilingan.
Il commençait à ne plus prendre pour de la sécheresse de cœur le genre de beauté qui tient à la noblesse du maintien.	261	prendre pour de la sécheresse de cœur	Qalbning sovuqligiga yo'ymoq 344 b.	Bu ibora "his-tuyg'ularning yo'qligini o'ylamoq" ma'nonsini bildiradi va bunda kontekstual moslashtirish metodidan foydalanilgan

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki asrni tarjima qilish jarayonida frazeologik birliklar va frazeologizmlarni tarjima qilishning bir qator usullaridan samarali foydalanilgan. Jumladan :

So'zma-so'z tarjima: So'zma-so'z tarjima frazeologizmlarning semantik mazmuni va lingvistik shaklini saqlash uchun qulay, lekin u har doim madaniy kontekstni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Ushbu tarjimada lug'aviy va strukturaviy jihatdan iboraning shakli saqlanadi va har ikki til madaniyatida o'xshash bo'lgan iboralar uchun samarali yechim topish mumkin. Bunda asliyatga sodiqlikni saqlab qolish va o'xshash tasvir va ma'noga ega iboralar uchun aniq tarjimani ta'minlash mumkin.

Madaniy moslashuv: Fransuzcha madaniyatga xos frazeologizmlar o'zbekcha madaniyatga moslashtirilgan.

Bu o'quvchilar uchun mazmunni qulayroq anglash imkonini beradi.

Ushbu moslashuvda iboraning lugʻaviy shakli oʻzgartiriladi, ammo maʼnosi saqlanadi. Bu orqali oʻquvchi uchun tushunarli va qulay tarjima yaratish mumkin. Ammo asliyatga nisbatan sodiqlikni yoʻqotish muammosi mavjud.

Ekvivalent yaratish: Metaforik tasvirlar va madaniy jihatdan begona iboralar oʻzbek tilida ekvivalentlar orqali ifodalangan. Bu usulda asliyatdagi obraz va mazmunning oʻrniga boshqa tasvir va maʼno bilan moslashtirish amalga oshiriladi. U milliy tasvir va obrazlardan foydalanib, iborani madaniy jihatdan tushunarli qiladi.

Kontekstual moslashuv: Frazelogizmlar kontekstga mos ravishda qayta shakllantirilgan.

Bu tarjimada iboralarining mazmunini saqlash uchun muhim hisoblanadi. Kontekstual moslashuvda iboraning mazmuni mazmunga mos ravishda oʻzgartiriladi va matnning umumiy mazmuniga urgʻu beriladi. Bu esa oʻquvchi uchun tushunarliroq iboralarni tanlash imkonini beradi.

XULOSA

Frazelogizmlar har qanday tilning lingvistik boyligini va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim vositadir. Stendalning *"Qizil va Qora"* romanidagi frazeologizmlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvistik va madaniy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Frazelogizmlarni oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida soʻzma soʻz tarjima, madaniy moslashuv, ekvivalent yaratish hamda kontekstual moslashuv kabi tarjimaning turli usullaridan foydalaniladi. Ushbu yondashuvlar oʻzaro uygʻunlikda qoʻllanilib, tarjimaning mazmunan sodiqligini va madaniy mosligini taʼminladi.

Biroq, har bir usulning oʻziga xos cheklovlari mavjud boʻlib, tarjimonning badiiy didi va lingvokultural bilimi natijaning muvaffaqiyatiga katta taʼsir koʻrsatadi. Frazelogizmlar tarjimasida madaniy farqlarni toʻgʻri anglash, iboralarining semantik yuki va badiiy funksiyasini saqlash, shuningdek, oʻquvchining madaniy tajribasini inobatga olish zarur. Shunday qilib, frazeologizmlar nafaqat lingvistik, balki madaniy nuqtai nazardan ham chuqur tadqiq etilishi lozim.

REFERENCES

1. **Rey, Alain** (dir.). *Le Robert des expressions et locutions*. Paris: Le Robert, 2011.
2. **Akimov, V.**, *Fransuzcha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat*. Toshkent:
3. Oʻqituvchi, 1985.
4. **Stendhal.**, *Le Rouge et le Noir*. Paris: Flammarion, 1830.

5. **Stendal.**, *Qizil va Qora*. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1965.
6. **Arsent'eva, E. F.** *Frazeologiya: Teoriya i praktika perevoda*. Moskva: Vysshaya shkola, 1988.
7. <http://books.google.com>
8. <https://fr.wikipedia.org>